

## RAQAMLI TA'LIM PLATFORMASINING TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANIB TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANATIRISH

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

**J.G'.G'ulomov**

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada raqamli ta'lim platformasining xususiyatlari, afzalliklari va undan o'quv jarayonida qanday samarali foydalanish haqida qisqacha fikrlar keltirilgan. Raqamli ta'lim platformasining asosiy afzalliklaridan biri unda talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantiruvchi bajarish va baholash turli mezonlarga asoslangan topshiriqlar mavjud bo'lib, har bir topshiriqni bajarishda unda belgilangan mezonlarga amal qilish talabalarda asosiy kasbiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Abstract:** This article provides a brief overview of the features and benefits of a digital learning platform and how to use it effectively in your learning process. One of the main advantages of the digital education platform is the availability of tasks based on various criteria for academic performance and assessment of the professional competence of students, and following the criteria specified in each task serves to develop the basic professional competence of students.

**Аннотация:** В этой статье представлен краткий обзор особенностей и преимуществ платформы цифрового обучения, а также способов ее эффективного использования в процессе обучения. Одним из основных преимуществ платформы цифрового образования является наличие заданий, основанных на различных критериях успеваемости и оценки профессиональной компетентности студентов, а следование критериям, указанным в каждом задании, служит развитию базовой профессиональной компетентности студентов.


### KIRISH

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan raqamli ta'lim platformasi zamonaviy ish bozorining talablariga javob beruvchi kasbiy ko'nikma va bilimlarni rivojlantirishda qo'llaniladigan raqamli vosita hisoblanib, ushbu vositadan foydalanib kasbiy yo'nalishdagi mavzular bo'yicha interaktiv darslar, videolar, matn va taqdimotlar orqali asosiy nazariy bilimlarni mustahkamlanadi. Hamda talabalar nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash va turli mezonli darajali topshiriqlarni bajarish orqali

real hayotdagi kasbiy masalalarda mustaqil bo‘lish, turli vaziyatlarda oldindan tayyor bo‘lish, muammoli holatlarga tez yechim topish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu sababli raqamli ta’lim platformasi orqali talabalarni bilimlarini baholashda bajarish va baholash turli mezonlarga asoslangan darajali topshiriqlardan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O‘quv jarayonida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan raqamli ta’lim platformasidan asosan uchxil turdagi foydalanuvchilar foydalanishlari mumkin. Ushbu foydalanuvchilar - administrator(boshqaruvchi), o‘qituvchilar(nazoratchi) va talabalar(bilim oluvchi) hisoblanadi (1-rasm).




1-rasm. Raqamli ta’lim platformasining asosiy sahifasi

Talabalar topshiriqning turiga qarab har bir topshiriqni o‘zida belgilangan mezonlar asosida bajarishlari hamda natijalarni platformaga qayta yuklashlari lozim. Ushbu jarayon topshiriq uchun belgilangan vaqt oralig‘ida bo‘lishi kerak aks holda topshiriq natijasini yuklash bo‘limi deadline rejimiga o‘tadi, yani natijani yuklash imkoniyati butunlay yopiladi. Shu bilan birga talabalar ushbu topshiriq uchun ajratilgan baldan mahrum bo‘lishadi. Talabalar tomonidan platformaga yuklangan topshiriq natijalari avtomatik tarzda o‘qituvchi profilining baholash bo‘limiga kelib tushadi. O‘qituvchilar tomonidan har bir topshiriq natijalarini aynan o‘sha topshiriq uchun belgilangan mezonlar asosida tekshiriladi va har bir mezon uchun ajratilgan ballarni topshiriq natijasi ushbu mezonlarga qanchalik mostligini inobatga olinib yuqori, o‘rta va past ko‘rsatkichlar asosida taqsimlab baholanadi. Shu bilan birga talabalarda topshiriq natijalarining baholanishi umumiy to‘plangan ball ko‘rinishida hamda har bir mezon ko‘rsatkichlarga qo‘yilgan ballar alohida shaklda taqdim etiladi. Buning natijasida topshiriqni bajarishda talab qilingan mezonlarga ajratilgan ballar asosida talabalar har

bir topshiriqni bajarish jarayonida qanday xato kamchiliklarga yo‘l qo‘yayotganliklarini yaxshiroq tushunib yetadi hamda ularda topshiriq va to‘plangan ballar bo‘yicha o‘qituvchiga beriladigan savollari sezilarli darajada kamayishiga olib keladi.

Raqamli ta‘lim platformasidan foydalanib kasbiy fanlarni o‘qitish hamda ushbu fanlardan topshiriqlarni bajarish jarayoni yuqorida takidlangan shaklda olib borilishi bo‘ljak informatika o‘qituvchilarini kasbiy kompetentligini rivojlanishiga sabab bo‘ladi (2-rasm).



2-rasm. Raqamli ta‘lim platformasining fan resurslari va topshiriqlarini yaratish sahifasi

Ushbu shakldagi baholashni aniqlashda foydalaniladigan tahlillar ta‘limning har qanday shakllari uchun qo‘llanilishi mumkin, shu bilan birga raqamli ta‘lim platformasi ta‘lim shakllarining har qanday turiga moslashuvchan hisoblanadi hamda oliy ta‘lim muassasalari talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda faol vosita hisoblanadi.

### Xulosa

Axborot hajmining keskin oshib borishi o‘quvchilar uchun ham, pedagoglar uchun ham fanni o‘rganishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishga undaydi. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan raqamli ta‘lim platformasining mazmunini takomillashtirishda bajarish va baholash turli mezonlarga asoslangan darajali topshiriqlardan foydalanish hamda ta‘lim jarayonida turli-tuman pedagogik texnologiyalardan foydalanib, samarali natijaga erishish uchun o‘qituvchi

o‘zining pedagogik faoliyatini oldindan loyihalashtirishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Dis. ... ped. fan. d-ri. - T.: 2012. - 307 b.
2. Dillon A. What it means to be an iSchool. Journal of Education in Library and Information Science. – 2012. 53, 4, rr. 267-273.
3. Djurayev R.X., G‘ulomov J.G‘. Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirishda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish // Qori Niyoziy nomidagi O‘zRFITI ning Nukus filiali “Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў” ilmiy jurnali №5-2022 B. 33-36
4. Djurayev R.X., G‘ulomov J.G‘. Informatika o‘qituvchisi metodik kompetentligining shakllanganlik darajasini tashxislash metodikasi // Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti “Ilmiy xabarnoma” ilmiy jurnali 2022/2 (62) B 58-64
5. Dottoyev S.X. Ta’lim jarayonlarining axborot-metodik ta`minotini amalga oshirishning portal texnologiyalari. Dis. ... ped. fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD). – T. 2021. –139 b.
6. Eminov A.G‘. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kompyuter grafikasi bo‘yicha kompetentligini rivojlantirish metodikasi (“Informatika va axborot texnologiyalari” o‘quv fani misolida): Dis. ... ped. fan. nomz. - Toshkent, 2012. – 139 b.
7. Fayzieva M.R. O‘quv jarayoniga moslashuvchi Web tizimlarni yaratish: ped. fan. fal. dok. (PhD). ... diss.– T.: 2017, – 164 b.